

GLOBALLASHUV SHAROITIDA XALQARO MOLIYA BOZORINI TARTIBGA SOLISH: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR

Jo'rayeva Xolixxon Maxmud qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
DMXM-15 guruh magistranti

xolixxonjorayeva18@gmail.com

Annotatsiya: Moliya bozori keng ko'ljam va murakkab tarkibga ega infratuzilma hisoblanadi. O'z o'rniда u depozitlar, aksiya, obligatsiya, veksellar, derivativ(hosilaviy qimmatli qog'ozlar), valyuta va sug'urta bozorlarini o'z ichiga olishi bilan iqtisodiyotni harakatlantiruvchi kuch bo'lib xizmat qiladi. Bir-biriga o'zaro aloqador bo'lган bu tizimni tartibga solish har qanday davlat uchun e'tiborga molik masaladir. Negaki, moliya bozorini taraqqiy toptirish- raqobat muhitini yaxshilash, moliyaviy boshqaruvning yangi turlarini qo'llashga ko'maklashish, xo'jalik yurituvchi subyektlarga investitsiyalarni jalg qilish bilan birga qo'shimcha ish o'rinalarini yaratish orqali ijtimoiy muammolarni ham hal etishga xizmat qiladi. Xalqaro miqyosda esa bu zanjir mamlakatlarni turli xil nazorat ishlarini amalga oshirish va tartibga solish islohotlarini o'tkazishga undaydi. Iqtisodiy globallashuvning vujudga kelishi natijasida paydo bo'lishi mumkin bo'lган muammolarni maksimal darajada hal qilish orqali butun dunyo iqtisodiyotini tartibga solish har qanday mamlakat va uning tarkibidagi kattakichik sektorlarining asosiy va muhim vazifasidir.

Kalit so'zlar: Globallashuv, xalqaro moliya bozori, moliyaviy instrumentlar, pul bozori, kapital bozori, valyuta bozori, qimmatli qog'ozlar bozori.

Abstract: The financial market is a large-scale and complex infrastructure. Instead, it serves as a driving force for the economy, including deposits, shares, bonds, bills, derivatives, foreign exchange and insurance markets. Regulation of this interconnected system is a significant issue for any country. After all, development of the financial market serves to solve social problems by improving the competitive environment, helping to use new types of financial management, attracting investments to business entities, and creating additional jobs. At the international level, this chain encourages countries to implement various controls and regulatory reforms. Regulating the world economy by maximally solving the problems that may arise as a result of economic globalization is the main and important task of any country and its large and small sectors.

Key words: Globalization, international financial market, financial instruments, money market, capital market, currency market, securities market.

KIRISH.

Xalqaro moliya bozorining iqtisodiy mohiyati to'grisida turli davr iqtisodchi olimlari turli xil g'oyalari orqali nazariyalar yaratgan va turlicha talqin etgan. Lekin, har bir iqtisodiy kategoriylar doimiy ravishda zamonaviy omillar asosida takomillashib boradi. Xalqaro moliya bozori ham hozirgi kunda qo'shimcha tarzda noan'anaviy zamonaviy yangi va xilma-xil funksiyalarni bajarmoqda. Moliyaviy globallashuv jarayonlari natijasida moliyaviy resurslar oqimi, jumladan transchegaraviy oqimi hajmining ortishi, o'z navbatida xalqaro moliya bozorining kengayishi va jahon iqtisodiyotining rivojlanishida ushbu moliyaviy resurslar roli oshmoqda. Mazkur jarayonlarni rag'batlantiruvchi omillar sifatida, moliya bozorlarini liberalizatsiyalashuvi, bank tizimida kompyuter

texnologiyalarining rivojlanishi, moliyaviy operatsiyalar sohasida hosilaviy moliyaviy instrumentlardan (valyuta, foiz stavkalari, aktsiyalar bilan fyuchers, forward kelishuvlari va boshqalar) keng foydalanish, shuningdek, moliya bozorining faoliyat ko'rsatish modelining o'zgarishi – bank modelidan hukmronlik qiluvchi fondga o'tishi hamda ofshor markazlar faoliyatini faollashuvini ko'rsatib o'tish mumkin.

Globallashuv jarayonlari xalqaro moliya bozorining shakllanishidagi asosiy bosh omillardan biriga aylandi. Shu bilan bir qatorda, ushbu jarayonga ta'sir etuvchi quyidagi: xalqaro moliya operatsiyalari amalga oshirish vaqt va operatsion xarajatlarini keskin qisqarishiga hamda asosiy moliya markazlarini bog'lovchi yangi informatsion–texnologiyalarni rivojlanishi, xalqaro moliyaviy instrumentlar bilan operatsiyalar va banklar faoliyatini liberalizatsiyalashuviga bog'liq holda xalqaro moliya bozori ishtirokchilari faoliyati shartlarini o'zgarishi, risklarni boshqarish va xedjrlash mexanizmlari asosida yangi xorijiy valyuta insturtmentlarini paydo bo'lishi va rivojlanishi kabi boshqa omillarni keltirish mumkin. Yuqorida ma'lumotlar globallashuv va iqtisodiy integratsiyaning xalqaro moliya bozorni tartibga solishdagi ta'siri hamda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolarni bartaraf etish va yangi yechimlar izlashning dolzarbligini namoyon etadi. Moliyaviy globallashuv sharoitida moliya bozorini rivojlantirishning asosiy maqsadi ishlab chiqarilgan tovarlarning eksport salohiyatini oshirish, iste'molchilarni jahon talablariga mos keladigan tovarlar bilan ta'minlash va mamlakatning monetar siyosati barqarorligini ta'minlashdir. Mamlakatimizda kapital bozorini rivojlantirish borasidagi chora-tadbirlarda ushbu bozorni rivojlantirishning yaxlit strategiyasini shakllantirish, uning samarali infratuzilmasi shakllanishida ko'maklashish hamda ikkilamchi qimmatli qog'ozlar bozorini jadal rivojlantirish va kengaytirishga qaratilgan amaliy harakatlarni faollashtirish, korporativ boshqaruv tizimini ilg'or xorijiy tajribalar assosida takomillashtirish, kapital bozorini tartibga solish sohasida xalqaro aloqalarni rivojlantirish kabi masalalar alohida ustuvorlik kasb etishi lozim.

Moliya bozorlarini tartibga solish barcha mamlakatlar uchun dolzarblik kasb etadi, chunki hozirgi kunda iqtisodiyotni rivojlantirishda moliya bozorining katta o'rni bor. Bugungi kunda bir qator xalqaro standartlashtirish organlari mavjud bo'lib, ularning bir guruhi moliyaviy tartibga solishning quyidagi uchta asosiy yo'nalishga bo'linadi:

- Bank faoliyatini tartibga solishda Bank nazorati bo'yicha Bazel qo'mitasi;
- Qimmatli qog'ozlar hamda derivativlarni tartibga solish bo'yicha Qimmatli qog'ozlar bo'yicha komissiyalarning xalqaro tashkiloti (IOSCO);
- Sug'urtani tartibga solish bo'yicha Sug'urta nazoratchilarining xalqaroassotsiatsiyasi (IAIS).

Ushbu xalqaro tashkilotlar moliya bozorlarini tartibga solishda xalqaro darajadagi standartlarni joriy etish, banklar faoliyatini nazorat qilish, qimmatli qog'ozlar va derivativlar bozorlarini tartibga solish, moliya bozorlari ishtirokchilari faoliyatlarini yaxshilash va tartibga solish bilan shug'ullanmoqda.

Mamlakatlardagi boshqaruv organlari jahon moliya bozorlaridagi katta moliyaviy integratsiya jarayonida bir qator qiyinchiliklarga duch kelishmoqda. Ushbu tendensiyalar tartibga solishda qo'shimcha 3ta jihatni ko'rib chiqish lozimligini ko'rsatadi:

1.Mamlakat ichida regulyatorlar orqali nazoratni yanada kengaytirish zarurligi.

Mamlakatlararo operatsiyalar tabiiy ravishda qo'shimcha risklarni, ayniqsa, valyuta riskini yuzaga keltiradi. Mamlakatdagi tartibga soluvchi tashkilotlar alohida moliyaviy kompaniyalar nuqtai nazaridan ham, to'liq tizim nuqtai nazaridan ham mamlakatlararo operatsiyalar ta'siridan kelib chiqadigan turli xil risklar bilan kurashmoqda. Moliyaviy qiyinchilikka uchragan kompaniyalarga o'zini tiklab olishga yo'naltirish uchun moliyaviy kompaniyalarning bo'limlarida kapital talabini qo'yish prinsipini keng qo'llash, kompaniyaning alohida operatsiyalariga kapital talablarini aniq belgilab qo'yish kerak.

2. Xalqaro regulyatorlarni muvofiqlashtirish zarurligi.

Moliyaviy tartibga solish bo'yicha G-20 ishchi guruhining ta'kidlashicha, xalqaro nazoratchilar guruhlari orqali boshqa milliy tartibga soluvchi organlar bilan ma'lumot almashish milliy va xalqaro moliyaviy kompaniyalar monitoringini kuchaytirishi mumkin. Tartibga solish choralari hanuzgacha davlat tomonidan boshqariladigan tartibga soluvchi organlar tomonidan amalga oshiriladi, ammo bu jarayon ma'lumot almashishni yaxshilaydi va samarali amaliyotni keng qo'llashda qo'shimcha kanal vazifasini o'taydi.

3. Mintaqadagi regulyatorlar o'rtasidagi muvofiqlashtirishni amalga oshirishning zarurligi.

Bu mintaqaviy moliyaviy barqarorlikni ta'minlash uchun muhim. G-20 ishchi guruhi tomonidan ilgari surilgan ushbu g'oya asosan mamlakatlararo operatsiyalarni amalga oshiradigan moliyaviy kompaniyalar to'g'risidagi ma'lumotlarni muvofiqlashtirishi yoki hech bo'lmaganda ma'lumotlarni o'zaro almashishni nazarda tutadi. Moliya bozori rivojlanishining darajasi, institutsional sifati va tartibga solish ko'lamiga ega mamlakatlar o'rtasida muvofiqlashtirish ishlarini olib borishda bir qator amaliy muammolar mavjud.

Bugungi kunda mamlakatimizda xalqaro moliya bozorini tartibga solishni takomillashtirish hamda globallashuv jarayonining moliyaviy instrumentlarni jalg etishga ta'siri hamda ularning tendensiylarini yaxshilashga qaratilgan ilmiy takliflar ishlab chiqilmoqda. Bunda:

- moliyaviy axborotning ahamiyatini va uning global moliya bozori ishtiropchilari uchun foydalanish imkoniyatini oshirish zaruriyati ko'rib chiqiladi;
- transchegaraviy moliya oqimlarini tartibga solishning milliy tizimini yaratish yo'li bilan mamlakatlarning integratsiyasini tezlashtirish yo'llari aniqlanadi;
- xalqaro moliya institutlarining mavqeini mustahkamlash va global moliya bozorining rivojlanishida bozorlari shakllanayotgan mamlakatlarning ahamiyatini oshirish yo'llari ko'rib chiqiladi;
- O'zbekiston moliya bozorini tartibga solish usullari jahon tajribasi bilan solishtiriladi hamda maqbul yechim va tavsiyalar ko'rib chiqiladi.

Xulosa qilib aytganda, moliya bozori hamda zamonaviy moliyaviy infratuzilmaning rivojlanishi innovatsion rivojlanish yo'liga o'tishning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi. Faqat shunday sharoitdagina investitsiya faoliyatini faollashtirish va investitsiya oqimlarini ishlab chiqarish, so'ngra esa yuqori texnologiyalar sohasiga qayta yo'naltirish mumkin bo'ladi. Zamonaviy moliya bozorlarining asosiy unsurlarini yaratmasdan turib, iqtisodiy o'sish asosiy omillaridan biri hisoblangan to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarning kirishiga erishib bo'lmaydi. Moliya bozori faoliyat ko'rsatishining asosiy tamoyillariga rioya etilishi davlatning tartibga solishga oid chora-tadbirlari bilan birga fond birjalari va bozor qatnashchilarining birlashmalarini ishlab chiqqan qoidalarini uyg'unlashtirish asosida ta'minlanadi. Umuman olganda, iqtisodiy globallashuv sharoitida xalqaro moliya bozorini tartibga solish masalasida murakkablik yuzaga kelayotgan bo'lsada, zamonaviy texnologiyalar asrida iqtisodiyotning barcha sektorlari bu holatga tayyor turishlari shart. Negaki, globallashuv jarayoni yuzaga keltirayotgan murakkabliklardan ko'ra ko'proq iqtisodiy taraqqiyotga o'z hissasini qo'shmoqda.

Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati:

1.K.Amadeo. Financial Regulations. The balance. March 14, 2020.
<https://www.thebalance.com/financial-regulations-3306234>

PEDAGOGIK ISLOHOTLAR VA ULARNING YECHIMLARI

<https://worldlyjournals.com>

ANDIJON ,2025

2. Marc Labonte. Who regulates whom? An overview of the U.S. financial regulatory Framework. Congressional Research Service. March 10, 2020. Page 26.
3. T.V. Derkach. Osnovnie napravleniya globalizatsii mirovoy ekonomiki. Naukoviy visnik mijnarodnogo gumanitarnogo universitetu.No 6–2013.S–103.
4. G'.G'. Shermatov. Moliyaviy globallashuv sharoitida moliya bozorining rivojlanish tendensiyalari